



O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA SOF FOIZ MARJASI DINAMIKASI VA SAMARADORLIK TAHLILI

PhD **Xannayev Sherzod**
Toshkent xalqaro universiteti
ORCID: 0009-0004-0768-2814
sherzod.khannaev@outlook.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston tijorat banklarining 1999–2023 yillardagi sof foiz marjasi (SFM) dinamikasi tahlil qilinadi. Sof foiz marjasi bankning foizli aktivlardan daromad olish samaradorligini ifodalaydi va moliyaviy barqarorlik hamda rentabellikni baholashda muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Tadqiqotda mulkchilik shakliga ko'ra banklar o'rtasidagi farqlar, vaqt bo'yicha tendensiyalar hamda ekstremal kuzatuvlarning ta'siri o'rganildi. Natijalar xorijiy banklarning sof foiz marjasi boshqa guruhlariga nisbatan sezilarli darajada yuqori ekanini, davlat banklari esa eng past samaradorlikka ega bo'lganini ko'rsatdi. Shuningdek, 2017-yildan keyingi davrda davlat bevosita egalik qiluvchi banklarning samaradorligi sezilarli oshgani qayd etildi.

Kalit so'zlar: sof foiz marjasi, tijorat banklari, samaradorlik, foizli aktivlar, moliyaviy barqarorlik.

ДИНАМИКА ЧИСТОЙ ПРОЦЕНТНОЙ МАРЖИ И АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ УЗБЕКИСТАНА

PhD **Ханнаев Шерзод**
Ташкентский международный университет

Аннотация. В данной статье анализируется динамика чистой процентной маржи (СФМ) коммерческих банков Узбекистана за 1999–2023 годы. Чистая процентная маржа отражает эффективность получения дохода от процентных активов и является важным показателем для оценки финансовой устойчивости и рентабельности. В исследовании изучены различия между банками по форме собственности, временные тенденции и влияние экстремальных наблюдений. Результаты показали, что чистая процентная маржа иностранных банков значительно выше, чем у других групп, в то время как государственные банки имели наименьшую эффективность. Кроме того, с 2017 года эффективность государственных банков с прямым государственным участием заметно возросла.

Ключевые слова: чистая процентная маржа, коммерческие банки, эффективность, процентные активы, финансовая устойчивость.

DYNAMICS OF NET INTEREST MARGIN AND EFFICIENCY ANALYSIS IN COMMERCIAL BANKS OF UZBEKISTAN

PhD Xannayev Sherzod
Tashkent International University

Abstract. *This paper analyzes the dynamics of net interest margin (NIM) in commercial banks of Uzbekistan for the period 1999–2023. Net interest margin reflects the efficiency of generating income from interest-bearing assets and is an important indicator for assessing financial stability and profitability. The study examines differences between banks by ownership type, time trends, and the impact of outliers. The results indicate that foreign banks have significantly higher NIM compared to other groups, while state-owned banks demonstrate the lowest efficiency. Furthermore, since 2017, the efficiency of state-owned banks with direct government ownership has increased significantly.*

Keywords: *net interest margin, commercial banks, efficiency, interest-bearing assets, financial stability.*

Kirish.

Sof foiz marjasi (SFM) banklarning foizli aktivlardan daromad olish samaradorligini o'lchovchi asosiy moliyaviy ko'rsatkichlardan biridir. Ushbu ko'rsatkich banklarning asosiy faoliyatidan – kreditlash va investitsion operatsiyalaridan tushgan foiz daromadlari bilan foiz xarajatlari o'rtasidagi nisbatni aks ettiradi. Yuqori sof foiz marjasi bankning foizli aktivlardan samarali foydalanayotganini bildiradi, past marja esa moliyaviy resurslardan foydalanishdagi samaradorlik yetarli emasligidan dalolat beradi.

Jahon amaliyotida SFM bank rentabelligi, risklarni boshqarish samaradorligi va moliyaviy barqarorlikni baholashda keng qo'llaniladi. Mamlakat bank tizimi barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlashda ushbu ko'rsatkichning dinamikasini muntazam monitoring qilish muhim ahamiyatga ega. Xususan, O'zbekistonda 2017-yildan keyingi moliyaviy islohotlar, xorijiy kapital kirib kelishi va davlat banklarining transformatsiyasi sof foiz marjasi ko'rsatkichiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi 1999–2023-yillar oralig'ida O'zbekiston tijorat banklarining sof foiz marjasi dinamikasini empirik tahlil qilish, mulkchilik shakliga ko'ra farqlarni aniqlash hamda yillar kesimida asosiy tendensiyalarni baholashdan iborat. Tadqiqotda ekstremal kuzatuvlar ta'siri alohida ko'rib chiqilib, 2017-yildan keyingi davr uchun alohida tahlil o'tkazildi.

Adabiyotlar sharhi.

Sof foiz marjasi bo'yicha xalqaro va mintaqaviy tadqiqotlar uning bank rentabelligi va samaradorligi bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Le (2017) tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotga ko'ra Vietnam banklari sof foiz marjasi va foizsiz daromadlari o'rtasida ikki tomonlama teskari bog'liqlik mavjud. Bundan kelib chiqadiki, Vietnam banklari foizsiz va foiz daromadlari tanlovi orasida bo'ladi. Nguyen (2012) tomonidan amalga oshirilgan tadqiqot ham sof foiz marjasi va foizsiz daromaldarga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilgan. Tahlil uchun 28 ta davlatda joylashgan 3000 dan ortiq banklar tanlab olingan. Ushbu tadqiqot natijalari ham ikki o'zgaruvchi o'rtasida teskari ta'sir mavjudligiga empirik fakt taqdim etgan. Hindiston banklari misolida amalga oshirilgan tadqiqotga (Barik and Raje, 2019) ko'ra, sof foiz marjasiga ta'sir qiluvchi muhim omillar sirasiga kapitalning riskka vaznlangan aktivlar ulushi, talab qilib olinguncha depozitlarning jami depozitlarga ulushi, operatsion xarajatlari, kredit portfeli hajmi, shuningdek, iqtisodiy o'sish hamda repo stavkasi kabilar kiradi. Claeyns va Vander Venet (2008) tadqiqotida bank hajmi, bozor konsentratsiyasi va kredit portfeli sifati sof foiz marjasiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Saunders va Schumacher (2000) esa xalqaro tajribada

banklarning SFM darajasi asosan foiz stavkalari o'zgaruvchanligi, kapital yetarliligi va operatsion xarajatlar bilan belgilanadi, degan xulosaga kelgan. Carbo Valverde va Rodriguez Fernandez (2007) tomonidan Evropa banklari misolida amalga oshirilgan tadqiqotda sof foiz marjasi va banklarning bozor kuchi o'rtasidagi bog'liqlik banklarning ixtisoslashuviga ko'ra farqlanishi ko'rsatilgan. Shuningdek, banklar qaqnchalik diversifikatsiyani amalga oshirishsa shunchalik bozor kuchi oshishi keltirib o'tilgan. Evropa banklari misolida amlaga oshirilgan boshqa bir tadqiqotda esa (Maudos and other, 2004) Evropa banklarining foiz marjasining pasayishi bozor kuchining hamda bozor konsentratsiyasining oshishi bilan yuzaga kelganligini aytiladi. Janubiy Osiyo banklari misolida amalga oshirilgan tadqiqotda (Islam and Nishiyama, 2016) sof foiz marjasiga ijobiy ta'sir etuvchi omillar sifatida likvidlilik, majburiy rezerv va operatsion xarajatlarning jami aktivlarga nisbati keltirilgan bo'lsa, salbiy ta'sir etuvchi omillar sifatida bank hajmi, bozor kuchi va iqtisodiy o'sish keltirilgan. Osiyo banklari misolida amalga oshirilgan boshqa bir tadqiqotda esa

Demirgüç-Kunt va Huizinga (2010) ishida rivojlanayotgan mamlakatlarda SFM darajasi rivojlangan mamlakatlarga qaraganda yuqoriroq bo'lishi, bunda risk premyasi, bank sektoridagi raqobat darajasi va regulativ muhit asosiy rol o'ynashi ta'kidlangan. Molyneux va Thornton (1992) esa kapital nisbati yuqori bo'lgan banklar odatda yuqoriroq SFMga ega bo'lishini empirik jihatdan isbotlagan.

O'zbekiston bo'yicha mavjud ilmiy ishlarda SFM masalasi kam yoritilgan. Mahalliy tadqiqotlarda sof foiz marjasi asosan umumiy rentabellik tahlilida ikkilamchi ko'rsatkich sifatida keltirilgan. Shu bois, ushbu maqola milliy bank tizimi bo'yicha sof foiz marjasi dinamikasini keng qamrovda o'rgangan dastlabki ishlardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Sof foiz marjasi bankning foizli aktivlardan daromad olish samaradorligini o'lchaydi. Ushbu ko'rsatkichning yuqori bo'lishi banklar foizli aktivlardan daromad olish bo'yicha yuqori samaradorlikka ega ekanligini anglatadi.

$$\text{Sof Foiz Marjasi} = \left(\frac{\text{Sof Foiz Daromadi}}{\text{O'rtacha Daromad Keltiruvchi Aktivlar}} \right) \times 100$$

Ushbu ko'rsatkichni hisoblash O'zbekiston hududida 1999-2023 yillarda faoliyat yuritgan barcha tijorat banklari balans ma'lumotlari asosida amalga oshirildi. Quyidagi jadvalda banklar mulkchilik shakliga ko'ra sof foiz marjasining (SFM) tasviriy statistikasi keltirilgan.

1-jadval

Sof foiz marjasining tasviriy statistikasi, 1999-2023 yillar

Mulkchilik shakli	Soni	O'rtacha	Std.og'	Min.	25%	50%	75%	Maks.
Davlat tijorat banklari	107	14.95	107.98	-726.91	3.93	10.13	19.62	814.34
Aksiyadorlik tijorat banklari	218	19.90	37.07	-17.34	8.27	14.94	24.67	525.06
Xususiy banklar	248	75.09	396.30	-277.10	13.76	19.94	28.94	3844.61
Xorijiy banklar	94	216.01	540.25	-52.71	20.83	46.30	99.11	3458.42
Jami	667	67.26	325.00	-726.91	9.99	17.92	29.23	3844.61


Jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, tahlil davrida davlat bevosita egalik qiluvchi tijorat banklari sof foiz marjasi eng past darajada bo'lib, u taqriban 15% ga teng bo'lgan. Keyingi o'rinda davlat bilvosita egalik qiluvchi tijorat banklari bo'lib, ularning o'rtacha sof foiz marjasi umumiy tahlil davrida taqriban 20% ga teng bo'lgan. Ulardan keyin xususiy banklar tahlil

davrida o'rtacha 75% lik sof foiz marjasiga ega bo'lgan. Xorijiy banklar tahlil davrida eng yuqori sof foiz marjasiga ega bo'lgan va u 216% teng bo'lgan. Bundan kelib chiqadiku, o'rtacha olganda davlat bevosita egalik qiluvchi tijorat banklari xorijiy banklardan ko'ra daromad keltiruvchi aktivlarini qariyb 15 barobar samarasizroq boshqargan. O'rtacha olganda daromad keltiruvchi aktivlarni davlat bilvosita egalik qiluvchi banklar xorijiy banklarga qaraganda 11 barobar samarasizroq boshqargan bo'lsa, xususiy banklar qariyb 3 barobar samarasizroq boshqargan.

Jadvalda keltirilgan standard og'ishlarni tahlil qiladigan bo'lsak, u yoki bu shklda davlat ulushi mavjud tijorat banklarining sof foiz marjasining standard og'ishi boshqa mulkchilik shakliga ega banklarning mos ko'rsatkichiga nisbatan sezilarli darajada past ekanligini ko'rish mumkin. Xorijiy va xususiy banklarning sof foiz marjasining standart og'ishining yuqori ekanligi ularda bozorga yangi o'yinchilarning kirib kelishi va samarasizlarining bozordan chiqib ketishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shuningdek, ko'rsatkichning minimum, maksimum va prosentillariga e'tibor beradigan bo'lsak, eng past darajadagi tebranish davlat bilvosita egalik qiluvchi tijorat banklariga tegishli bo'lgan bo'lsa, eng quyi minimumni davlat bevosita egalik qiluvchi tijorat banklari egallagan. Eng yuqori diapazonda tebranish xususiy banklarga tegishli bo'lib, xorijiy tijorat banklari tebranishi asosan musbat qiymatlarda kuzatilgan. Shuning uchun ham xorijiy banklarning medianasi va 1-kvartilidagi qiymatlardan boshqa mulkchilik shakliga ega banklarning mos ko'rsatkichlari qiymatlarigandan sezilarli darajada yuqori bo'lgan.


Tahlil va natijalar muhokamasi.

Mulkchilik shakliga ko'ra banklarning sof foiz marjasini quti grafiklari ko'rinishida ifodalash orqali statistik ma'lumotlarni va farqlarni chuqurroq anglash mumkin. Quyidagi rasmda mulkchilik shakliga ko'ra quti grafiklari keltirilgan. Rasmdan ko'rish mumkinki, deyarli barcha mulkchilik shakli bo'yicha guruhlarda chetki kuzatuvlar (outliers) mavjud bo'lib, barcha guruhlardagi o'rtacha qiymatlarni tahlil davrida o'ngga yoki chapga siljishiga olib kelgan. Ushbu muammoni bartaraf etish uchun quyidagi rasmda statistik ma'lumotlardagi chetki kuzatuvlarni tashlab yuborgan holda quti grafiklarini qaytadan chizamiz.




1-rasm. Sof foiz marjasining mulkchilik shakliga ko'ra farqlanishi

Rasmdan ko'rish mumkinki, chetki kuzatuvlarsiz ham xorijiy banklar boshqa mulkchilik shakliga ega banklarga qaraganda samaraliroq faoliyat olib borgan. Ya'ni daromad keltiradigan aktivlardan samaraliroq foydalangan. Davlat ulushi mavjud banklar boshqa banklar medianasi bilan solishtirganda 5-10% samarasizroq faoliyat olib borgan.




2-rasm. Chetki kuzatuvlarsiz sof foiz marjasi

Davlat bevosita egalik qiluvchi tijorat banklarining sof foiz marjasi bo'yicha kuzatuvlarning 50% tahlil davrida 5-20% atrofida bo'lgan bo'lsa, xorijiy banklarning ushbu ko'rsatkichi 15-40% atrofida bo'lgan.



3-rasm. Mulkchilik shakli va yillar kesimida sof foiz marjasi

Rasmdan koʻzga yaqqol tashlanadigan holat xorijiy banklarning sof foiz marjasining oʻzgarishi boʻlib, ranglarning turli-tumanligi ushbu koʻrsatkichning oʻrtachasi yuqori oʻzgaruvchanlikka ega boʻlganligini anglatadi. Bu yerda bir narsani yodda tutish kerakki, bu mulkchilik turiga ega boʻlgan banklar toʻplami oʻzgarmas boʻlmagan turli banklar mamlakatimizga kirib kelgan boʻlsa ayrimlarni mamlakatimiz bank bozorini tark etgan. Davlat bevosita egalik qiluvchi tijorat banklarining ranglariga qaraydigan boʻlsak, unda katta oʻzgarishlar boʻlmasada, kichik oʻzgarishlare roʻy berganini payqash mumkin. Shuningdek, soʻnggi yillarda sof foiz marjasi ancha pastlab oʻrtacha olganda nolga yaqinlashganini koʻrish mumkin. Qiziq holat “Asakabank” bilan kuzatilgan boʻlib, tahlil davrining deyarli barcha davrida sof foiz marjasi nolga teng yoki yaqin boʻlgan. Boshqa bir davlat bevosita egalik qiluvchi bank “Xalqbanki”da esa bu koʻrsatkich soʻnggi yillarda -20% gacha tushib ketgani kuzatilgan.



4-rasm. Sof foiz marjasining taqsimoti (chetki kuzatuvlarsiz)

Yuqoridagi taqsimot rasmdan koʻrish muminki, sof foiz marjasi barcha banklar uchun tahlil davrida -20% dan 60% gacha boʻlgan oraliqda tebrangan. Kuzatuvlarning asosiy qismi yoki 2 standart ogʻish oraligʻidagisi taqriban 0-30% oraligʻida ekanligini koʻrish mumkin. Shuningdek, ikki standart ogʻishdan tashqarida qolgan kuzatuvlarda manfiy tomonda qolgan kuzatuvlar soni musbat tomonda qolgan kuzatuvlar sonidan kamroq ekanligini ham koʻrish mumkin. 30-60% oraligʻidagi kuzatuvlar daromad keltiradigan aktivlardan foyda olish boʻyicha chetki kuzatuvlarsiz normal holatda erishilgan samaradorlikni anglatmaydi, albatta. Bunday kuzatuvlar umumiy tahlil davrida taqriban 15% holatlarda kuzatilgan.

Quyidagi jadvalda mulkchilik shakliga koʻra tijorat banklarining yillar kesmida sof foiz marjasi oʻrtachasining oʻzgarish tendensiya keltirilgan. Jadvaldagi oʻrtachalarni hisoblashdan oldin kuzatuvlardagi chetki kuzatuvlar tashlab yuborilgan. Bu ulardagi ekstrim kuzatuvlarning oʻrtachani oʻngga yoki chapga siljitib yuborilishini oldini oladi. Jadval maʼlumotlaridan xorijiy banklar tahlil davri boshida ham oxirida ham boshqa mulkchilik shakliga ega banklardan koʻra yuqori sof foiz marjasiga ega boʻlgan boʻlsa, xususiy banklar tahlil davri oxirida ikkinchi oʻringa chiqib olishgan.

Davlat banklari esa umumiy tahlil davrida eng past darajadagi sof foiz marjasiga ega bo'lgan. Yana bir ko'zga tashlanadigan holat yillar kesimida barcha mulkchilik shakliga ega banklarda sof foiz marja pasayish trendiga ega bo'lgan. Ya'ni, daromad keltiruvchi aktivlardan samarali foydalanish darajasi yillar keismida pasaymoqda.

2-jadval

Mulkchilik shakliga ko'ra va yillar kesimida sof foiz marjasi

Yillar	Aksiyadorlik tijorat banki	Chet el banki	Davlat tijorat banki	Xususiy tijorat banki
1999	27.71605	36.01629	15.75258	20.34045
2000	19.92402	6.620452	6.816506	33.91104
2001	10.52587	-13.9451	11.26728	23.83832
2002	33.3372	35.61376	23.22921	19.70781
2003	16.87465	16.6646	30.61499	25.22179
2004	18.10201	19.41329	12.89058	20.08647
2005	23.80044	-2.44794	11.42189	14.36751
2006	17.32969	51.08948	7.353012	14.59614
2007	15.81719	33.22373	10.65024	13.90965
2008	15.16206	34.68535	9.728777	17.3072
2009	15.05226	33.7289	11.04971	18.59819
2010	20.09787	32.5558	11.40064	25.98198
2011	25.41615	-	9.092637	27.27638
2012	16.65309	47.65068	10.11439	25.49869
2013	15.84652	-	10.05704	19.40144
2014	12.69881	19.50786	15.46917	24.08845
2015	15.76318	39.00291	13.75975	17.72036
2016	8.791159	23.60156	12.53546	15.01268
2017	14.40478	-	7.224917	24.83377
2018	13.01994	31.7348	15.03161	15.90764
2019	12.38698	28.92332	13.43019	19.33371
2020	10.01753	19.95006	16.08625	17.07888
2021	13.54197	18.59148	6.894342	16.0542
2022	15.29983	24.77684	5.874491	20.45352
2023	11.74967	27.54261	8.427742	17.13848

Mulkchilik shakliga ko'ra banklarning sof foiz marjasi o'rtasida statistik jihatdan sezilarli darajada mavjudligini empirik isbotlash uchun ko'p o'zgaruvchili ANOVA testi amalga oshirildi. Bunda asosiy gipoteza "mulkchilik shakliga ko'ra banklarning sof foiz marjalari o'rtachalari orasida farq mavjud emas" bo'lsa, muqobil gipoteza esa "mulkchilik shakliga ko'ra banklarning sof foiz marjalari o'rtachalar orasida farq mavjud" kabi yozildi. Test natijalariga ko'ra, mulkchilik shakliga ko'ra sof foiz marjalari orasida statistik jihatdan ahamiyatli darajada farq mavjud. Ushbu testda muhim farazlardan biri guruhlar orasidagi variatsiya bir xilligi. Ammo, bu faraz ushbu to'plamda qanoatlantirilmaydi. Shuning uchun variatsiyalar geterogen bo'lgan holat bo'yicha ham Welch testi amalga oshirildi. Test natijasiga ko'ra, Wald Chi-squared testi ($\chi^2(3)$) 17.36 ga teng bo'lib, p-qiyamat 0.0006 ga teng. Bundan kelib chiqadiki, guruhlarning sof foiz marjasi o'rtachalari orasida statistik jihatdan qat'iy katta farqlanish mavjud. Ushbu testning kamchiligi guruhlararo farqlar va ularning statistik ahamiyatini amalga oshirmaydi. Bu uchun biz guruhlarini ikkitadan juftliklarga ajratib har bir juftlikning o'zaro farqlarini test qilib ko'ramiz.

3-jadval

Bank mulkchiligiga ko'ra o'rtachalar qiyosiy tahlili, 1999-2023 yy.

Juftliklar		Farq	Std. xato	P>t
Aksiyadorlik tijorat banklari	Davlat tijorat banklari	4.95	37.66	0.896
Xususiy tijorat banklari	Davlat tijorat banklari	60.13	36.90	0.104
Xorijiy tijorat banklari	Davlat tijorat banklari	201.06	45.10	0.000
Xususiy tijorat banklari	Aksiyadorlik tijorat banklari	55.19	29.62	0.063
Xorijiy tijorat banklari	Aksiyadorlik tijorat banklari	196.11	39.36	0.000
Xorijiy tijorat banklari	Xususiy tijorat banklari	140.93	38.64	0.000

Test natijalariga ko'ra, davlat bevosita egalik qiluvchi banklar, davlat bilvosita egalik qiluvchi banklar va xususiy banklar sof foiz marjalari o'rtachalari orasida tahlil davrida statistik jihatdan ahamiyatli darajadagi farq mavjud emas. Xorijiy banklar esa boshqa barcha bank guruhlarini sof foiz marjalari o'rtachalaridan statistik jihatdan sezilarli darajada katta farq qiladi. Test natijasi talqinni sifatida yana shuni aytish mumkinki, xorijiy banklar o'zlarining xorijdagi asosiy banki tajribalarini mamlakatimiz bank tizimiga import qilgan holda sof foiz marjasi bo'yicha mamlakatimizda tashkil etilgan banklardan farqli darajada yuqori samaradorlikka ega bo'lgan.

Tahlil davrini ikki qismiga bo'lgan holda 2017-yildan keyingi davrni alohida tahlil qilish zarur deb o'ylaymiz, chunki bu davrda bir qator jiddiy iqtisodiy islohotlar amalga oshirildi. Quyidagi jadvalda yuqorida testni 2017-yildan oldingi davr uchun amalga oshirdik.

4-jadval

Bank mulkchiligiga ko'ra o'rtachalar qiyosiy tahlili, 1999-2017 y.y.

Juftliklar		Farq	Std. xato	P>t
Aksiyadorlik tijorat banklari	Davlat tijorat banklari	18.39	50.52	0.716
Xususiy tijorat banklari	Davlat tijorat banklari	97.61	49.80	0.051
Xorijiy tijorat banklari	Davlat tijorat banklari	221.97	60.49	0.000
Xususiy tijorat banklari	Aksiyadorlik tijorat banklari	79.22	38.52	0.040
Xorijiy tijorat banklari	Aksiyadorlik tijorat banklari	203.58	51.61	0.000
Xorijiy tijorat banklari	Xususiy tijorat banklari	124.36	50.90	0.015

Test natijalariga ko'ra, 1999-2017-yillarda davlat bevosita va bilvosita egalik qiluvchi tijorat banklari o'rtacha sof foiz marjalari o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli darajada yuqori farq mavjud emas. Ammo, boshqa juftliklar o'rtachalari orasidagi farq statistik jihatdan ahamiyatli darajada yuqori farqqa ega bo'lgan.

Quyidagi jadvalda 2017-yildan keyingi davr uchun amalga oshirilgan test natijalari keltirildi.

5-jadval

Bank mulkchiligiga ko'ra o'rtacha SFM qiyosiy tahlili, 2017-2023 yy.

Juftliklar		Farq	Std. xato	P>t
Aksiyadorlik tijorat banklari	Davlat tijorat banklari	-20.53	49.82	0.681
Xususiy tijorat banklari	Davlat tijorat banklari	-18.04	48.06	0.708
Xorijiy tijorat banklari	Davlat tijorat banklari	160.58	59.38	0.007
Xususiy tijorat banklari	Aksiyadorlik tijorat banklari	2.49	41.54	0.952
Xorijiy tijorat banklari	Aksiyadorlik tijorat banklari	181.12	54.24	0.001
Xorijiy tijorat banklari	Xususiy tijorat banklari	178.62	52.62	0.001

Jadval ma'lumotidan ko'rish mumkinki, so'nggi yillardagi natijalar umumiy tahlil davri natijalari shakllanishida muhim rol o'ynagan. Xorijiy investorlar uchun keng imkoniyatlar taqdim etilishi natijasi ko'plab xorijiy banklar ochildi hamda ular o'zlarida zamonaviy xorijiy tajriba orqali yuqori samaradorlikka ega bo'lmoqda. Shuning bilan birga ularning tajribalari mahalliy banklarning ham ulardan o'rgangan holda samaradorligiga ijobiy ta'sir etmoqda. Chunki, ushbu davrda davlat bevosita egalik qiluvchi banklar o'rtacha sof foiz marjasi davlat bilvosita egalik qiluvchi hamda xususiy banklar o'rtachasidan sezilarli darajada oshgan. Shuningdek, yana bir quvvarli holat xorijiy banklar o'rtacha sof foiz marjasi va mahalliy banklar sof foiz marjasi o'rtasidagi farqlar kamayishni boshlagan. Lekin bu trend barcha mahalliy banklar o'rtacha sof foiz marjasi oshganligini anglatmaydi. Chunki davlat bevosita egalik qiluvchi banklardan boshqa mulkchilik shakliga ega banklarning o'rtacha sof foiz marjasi pasayishi kuzatilgan bo'lsa, davlat banklarining sof foiz marjasi 2017-yildan oldingi davrdagi o'rtacha 4% dan 2017-yildan keyingi davrda 33% ga oshgan. Ya'ni, davlat bevosita egalik qiluvchi tijorat banklari 2017-yildan keyin daromad keltiruvchi aktivlarni oldingi davrga qaraganda 8 barobar samaraliroq boshqargan.

Quyidagi jadvalda har uchala davr uchun sof foiz marjasini banklarning mulkchilik shakliga ko'ra o'rtachasini keltirib o'tamiz.

6-jadval

Sof foiz marjasining turli davrlardagi o'rtachasi

Bank guruhlari	[1999-2023]	[1999-2017]	[2017-2023]
Davlat tijorat banklari	14.96	4.35	33.45
Aksiyadorlik tijorat banklari	19.90	22.74	12.92
Xususiy banklar	75.09	101.96	15.41
Xorijiy banklar	216.02	226.32	194.03

Xulosa va tavsiyalar

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, 1999–2023 yillar oralig'ida O'zbekiston tijorat banklarining sof foiz marjasi mulkchilik shakliga ko'ra sezilarli darajada farqlangan. Xorijiy banklar barcha davrlarda eng yuqori SFMga ega bo'lgan va bu ularning xorijiy tajribani tatbiq etishi hamda daromad keltiruvchi aktivlardan samarali foydalanishi bilan izohlanadi. Davlat bevosita egalik qiluvchi banklar esa eng past samaradorlikni namoyish etgan, biroq 2017-yildan keyin ularning SFM darajasi keskin oshgan.

Xususiy banklarning SFM ko'rsatkichlari tahlil davri boshida yuqori bo'lsa-da, so'nggi yillarda pasayish tendensiyasini ko'rsatdi. Umuman, barcha mulkchilik shakliga ega banklarda sof foiz marjasi yillar davomida pasayish trendiga ega bo'lgan, bu esa foizli aktivlardan samarali foydalanish darajasining bosqichma-bosqich kamayganini anglatadi.

Natijalar bank boshqaruvi va regulyatorlar uchun bir nechta tavsiyalarni ilgari suradi:

- Sof foiz marjasi monitoringini kuchaytirish va tahlil natijalarini strategik qaror qabul qilishda qo'llash.
- Davlat banklarida boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish orqali samaradorlikni oshirish.
- Xususiy banklarda foizli aktivlardan foydalanish samaradorligini saqlash uchun yangi kredit siyosatlari va risk boshqaruvi usullarini joriy etish.
- Xorijiy banklar tajribasidan mahalliy banklar faoliyatida keng foydalanish.

Adabiyotlar /Jumepamypa/Reference:

Barik S. S. and N. Raje, (2019) "Net Interest Margins of Banks in India," *Margin J Appl Econ Res*, vol. 13, no. 2, pp. 192–207, May, doi: 10.1177/0973801018812545'.

Carbó S. Valverde and Rodríguez F. Fernández, (2007) "The determinants of bank margins in European banking," *J Bank Financ*, vol. 31, no. 7, pp. 2043–2063, Jul., doi: 10.1016/j.jbankfin.2006.06.017.

Claeys S. and Vander R. Vennet, (2008) "Determinants of bank interest margins in Central and Eastern Europe: A comparison with the West," *Economic Systems*, vol. 32, no. 2, pp. 197–216, Jun., doi: 10.1016/J.ECOSYS.2007.04.001.

Demirgüç-Kunt A. and Huizinga H., (2010) "Bank activity and funding strategies: The impact on risk and returns," *J financ econ*, vol. 98, no. 3, pp. 626–650, Dec. doi: 10.1016/J.JFINECO.2010.06.004.

Islam M.S. and Nishiyama S.I., (2016) "The determinants of bank net interest margins: A panel evidence from South Asian countries," *Res Int Bus Finance*, vol. 37, pp. 501–514, May, doi: 10.1016/J.RIBAF.2016.01.024.

Le T. D. Q., (2017) "The interrelationship between net interest margin and non-interest income: evidence from Vietnam," *International Journal of Managerial Finance*, vol. 13, no. 5, pp. 521–540, Sep., doi: 10.1108/IJMF-06-2017-0110.

Maudos J. and Fernández J. de Guevara, (2004) "Factors explaining the interest margin in the banking sectors of the European Union," *J Bank Financ*, vol. 28, no. 9, pp. 2259–2281, Sep., doi: 10.1016/j.jbankfin.2003.09.004.

Molyneux P. and Thornton J., (1992) "Determinants of European bank profitability: A note," *J Bank Financ*, doi: 10.1016/0378-4266(92)90065-8.

Nguyen J. (2012) "The relationship between net interest margin and noninterest income using a system estimation approach," *J Bank Financ*, vol. 36, no. 9, pp. 2429–2437, Sep., doi: 10.1016/J.JBANKFIN.2012.04.017.

Saunders A., Schumacher L., and Schiff J.M., (2000) "The determinants of bank interest rate margins: an international study," *J Int Money Finance*, vol. 19, no. 6, pp. 813–832, Dec., doi: 10.1016/S0261-5606(00)00033-4.